

# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
**2021**



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON  
(2021-yil, dekabr )**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

## MUNDARIJA

<b>Alijon HAMROEV.</b> Modeling activities of teachers when designing creative activities of students.....	7
<b>Matlab TILAVOVA.</b> Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
<b>G'ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA.</b> Markaziy osiyolik allomalarning tabiat haqidagi asarlaridan boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanish .....	18
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA.</b> Ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar .....	20
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA.</b> Ko'paytirish va bo'lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
<b>Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA.</b> Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo... ..	28
<b>Nigora ADIZOVA.</b> Qiziqmachoqlarda hayot sabog'ining o'ziga xos talqini.....	30
<b>Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA.</b> "Qiziqmachoq" atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari .....	33
<b>Mohinur SAIDOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining masofaviy ta'limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari .....	38
<b>Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish.....	42
<b>Nodira ADIZOVA.</b> Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
<b>Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO'LATOVA.</b> Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi .....	49
<b>Shoira BOBOYEVA.</b> Metodikada ona tili ta'limini modellashtirishga innovatsion yondashuv .....	51
<b>Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА.</b> С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии .....	58
<b>Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА.</b> Влияние международного исследования girls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника .....	64
<b>Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА.</b> Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей .....	68
<b>Mehriniso HAKIMOVA.</b> Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta'minlashga doir metodik ta'minot.....	72
<b>Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА.</b> "Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши" мавзусини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги .....	79
<b>Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА.</b> Преподавание биологии в школе .....	86
<b>Shoira QURBONOVA.</b> Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish .....	89
<b>Gavhar SAIDOVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o'lchash malakalarini hosil qilish .....	92
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni .....	94
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari .....	97
<b>Yulduz Pulatova.</b> Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons .....	101
<b>Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA.</b> Maktab o'quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlar .....	107
<b>Adiba BAHRONOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari .....	110
<b>Saodat QODIROVA.</b> Qadimiy maqollar .....	113
<b>Dilshod DAVRONOV.</b> Zamon bilan hamnafas yashagan alloma .....	115
<b>Yulduz NUROVA.</b> Etnologiya va etnografiya munosabati .....	118
<b>Malika XAYDAROVA.</b> Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari .....	122
<b>Nodirabegim RAJABOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarga figura yuzi tushunchasini o'rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

<b>Nodirabegim RAJABOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli .....	128
<b>Yusufzoda Shabnam.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish .....	132
<b>Mardon YARASHOV.</b> Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
<b>Dilora SIDIQOVA.</b> Masofaviy ta'lim sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi .....	138
<b>O'g'iljon OLLOQOVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashtirish..	142
<b>Umida TOG'AYEVA.</b> Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
<b>Gavhar RUSTAMOVA.</b> O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar .....	150
<b>Feruza ABDULLAYEVA.</b> Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish .....	154
<b>Feruza ABDULLAYEVA.</b> Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli.....	156
<b>Dilnoza XAYRULLAYEVA.</b> 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi .....	159
<b>Mohichehra IBROHIMOVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish .....	163
<b>Mahliyo HAYDARQULOVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
<b>Madina OZODOVA.</b> Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari .....	170
<b>Nigora RO'ZIYEVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish .....	172
<b>Shahlo SAPAROVA.</b> The classification of Elbek poems in 5 directions .....	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari .....	178

**Fayzullo QOSIMOV**  
Buxoro davlat universiteti  
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida  
dotsenti

**Mavluda QOSIMOVA**  
Buxoro davlat universiteti  
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida  
katta o'qituvchisi

## **IKKI SONNING YIG'INDISI (YOKI AYIRMASI) VA KARRALI NISBATIGA KO'RA SHU SONLARNI TOPISHGA DOIR MASALALAR**

*Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ikki (yoki bir necha) sonni ularning yig'indisi va ayirmasiga ko'ra topishga doir masalalar yechishga o'rgatishning usullari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** masala, arifmetik masala, tipik arifmetik masala, yig'indi, ikki son yig'indisi, ikki son ayirmasi, arifmetik amallar, grafik ko'rinish.

*Работа над арифметическими задачами в начальных классах составление и решение творческих задач учащимся является объектом данной статьи.*

**Ключевые слова:** задача, арифметическая задача, типовая арифметическая задача, сумма, сумма двух чисел, разность двух чисел, арифметические операции, график.

*The work with arithmetic tasks in initial classes, drawing up and decision of creative tasks by the pupils is object of given clause.*

**Key words:** problem, arithmetic problem, typical arithmetic problem, sum, sum of two numbers, difference of two numbers, arithmetic operations, graph.

**Kirish.** Adabiyotlarda “masala”, “arifmetik masala” “sodda arifmetik masala”, “murakkab arifmetik masala” tushunchalari bilan bir qatorda “tipik arifmetik masala” tushunchasi ham mavjud.

Murakkab matnli masalalar ichidan bir xil ketma-ketlikda bajariladigan va bir xil amallar bilan yechiladigan qator masalalarni ajratish qiyin emas. Bunday masalalarni bir turdagi masalalar deb aytish mumkin. Lekin ba'zi muhim belgilarga ega bo'lgan murakkab masalalarni metodika kursida **tipik arifmetik masalalar** tarzida qabul qilingan.

Tipik masalalarning o'ziga xos belgisi ularning tipik bo'lmagan masalalarga qaraganda ancha qiyinroq bo'lishi va ularni yechish uchun maxsus mulohaza usullarini qo'llash zarurligidadir.

**Asosiy qism.** Tipik arifmetik masala tushunchasi ko'plab arifmetikaga oid adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari, boshlang'ich sinf matematika kursida o'rganiladigan tipik arifmetik masalalar ustida ishlash muammosi hali to'liq o'z yechimini topmagan. Shu o'rinda ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalarni xususiyatlarini keltirib yechish yo'llarini tahlil qilib bermoqchimiz.

- masalada ikki son yoki miqdorning yig'indisi (yoki ayirmasi) hamda ularning karrali nisbati beriladi, shu son yoki miqdorning o'zini topish talab qilinadi;

- masala matnini oydinlashtirish va yechimni topish maqsadida grafik shart (masala modeli) tuziladi. Grafik shartni tuzishda eng kichik son yoki miqdor bir qism (hissa) sifatida tanlanib, shartli ravishda ma'lum uzunlikdagi kesma orqali belgilandi. Masala matnidan ikkinchi son yoki miqdor karrali nisbatga ko'ra, necha marta kattaligi inobatga olinib, ikkinchi kesma uzunligi belgilanadi;

- masalada ikki va undan ortiq noma'lum son yoki miqdor ishtirok etadi;

- masala yechimi teng qismlar sonini hisoblashdan boshlanadi. Agar masala matnida ikki son yoki miqdorning yig'indisi va karrali nisbati berilgan bo'lsa, qismlar soni qo'shiladi. Agar masala matnida ikki son yoki miqdorning ayirmasi va karrali nisbati berilgan bo'lsa, qismlar soni ayriladi.


- masala doimo yagona yechim usuliga ega bo'ladi;

- masala tarkibida boshqa tip masalalari uchrashi mumkin.

Bunday tipdagi masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziqib yechishlari mumkin. Dastlab ikki son yig'indisi va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Quyidagi masalani qaraymiz.

Masala. Nodir va Tolib 24 ta qo'ziqorin terishdi. Nodir tergan qo'ziqorinlar soni Tolib tergan qo'ziqorinlar sonidan 2 marta ko'p. Nodir nechta qo'ziqorin terdi? Tolib nechta qo'ziqorin tergan?

Ushbu masala tushunarli bo'lishi uchun dastlab masala qisqa shartini ifodalovchi grafik modelini beraylik. Nodir tergan qo'ziqorinlar soni Tolibga qaraganda 2 marta ko'p bo'lgani uchun, Tolib tergan qo'ziqorinlar sonini biror “a” kesma bilan ifodalaymiz. Nodir tergan qo'ziqorinlar soni undan 2 marta uzunroq bo'lgani uchun “a”dan 2 marta uzunroq kesmani “b” bilan ifodalaymiz. Ular ikkalasi



24 ta qo'ziqorin terganini ifodalovchi sonni belgilaymiz.

Masalani o'quvchilar bilan quyidagicha mulohaza yuritib yechamiz.

- O'quvchilar Nodir qancha qo'ziqorin tergani masalada ma'lummi?

- Yo'q

- Tolib qancha qo'ziqorin tergani-chi ?

- Yo'q, ma'lum emas.

- Ikkalasi qancha qo'ziqorin tergani-chi?

- Ha. 24 ta

- Kim ko'p qo'ziqorin tergan?

- Nodir.

- Nodir Tolibdan necha marta ko'p qo'ziqorin tergan?

- 2 marta.

- Bu yerda shu narsani aytish joizki, "Nodir yoki Tolib qancha qo'ziqorin tergan?" degan savol o'quvchilarni noto'g'ri mulohaza yuritishga olib keladi.

Ayrim o'quvchilar o'zicha mulohaza yuritib 24 ni 2 ga bo'lib, Tolib tergan qo'ziqorinlar sonini topishni aytadi. Bu xato yechimga olib keladi.

O'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri mulohaza yuritishga jalb qilib, grafik modeldan "Tolib tergan qo'ziqorinlar sonini 1 qism (hissa) deb olsak, Nodir tergan qo'ziqorinlar soni Tolib tergan sonidan 2 hissa ko'p bo'lgani sababli 2 hissa (qism) bo'ladi" deb aytadi. Shunda o'quvchilar 24 ta terilgan qo'ziqorin necha hissa (qism) ekanligini bilib olishadi.

$1+2=3$  (qism)

- Endi 1 qism ya'ni Tolib tergan qo'ziqorinlar sonini topsa bo'ladimi?

- Ha.

- Qanday qilib?

- 24 ni 3ga bo'lib.  $24:3=8$  (ta)

- 8 ta qo'ziqorin kim tergan ekan?

- Tolib.

- Nodir nechta qo'ziqorin terganini topsa bo'ladimi?

- Ha, 8 ni 2ga ko'paytirib.  $8 \cdot 2=16$  (ta)

O'qituvchi masalani to'g'ri yechganliklarini aniqlashlarini aytadi. Shunda o'quvchilar masalani tekshirib ko'rishadi.

$8+16=24$  (ta) yoki  $16:8=2$  (marta) bu yechimlar masalani to'g'ri yechilganligini ifodalaydi.

Endi o'quvchilarni ikki sonni ularning ayirmasi va karrali nisbatiga ko'ra topishga doir masalalar bilan tanishtirishni qarab chiqamiz.

**Masala.** O'tloqdagi g'ozlar o'rdaklardan 3 marta kam. O'rdaklar g'ozlardan 14 ta ko'p bo'lsa, o'tloqda nechta g'oz va nechta o'rdak bor?

Ushbu masala ikki noma'lumli chiziqli tenglamalar sistemasi  $\left. \begin{matrix} a = 3b \\ a - b = 14 \end{matrix} \right\}$  ni ifodalaydi. (Bunda  $a$  -

o'tloqdagi o'rdaklar sonini,  $b$  esa g'ozlar sonini bildiradi)

Ushbu masalani boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan quyidagicha muhokama yuritib yechish mumkin:

- O'quvchilar masalada nima haqida borayapti?

- O'tloqdagi g'oz va o'rdaklar haqida.

- O'tloqdagi g'ozlar o'rdaklardan necha marta kamligi masalada ma'lummi?

- Ha, 3 marta

- Yana masalada nima berilgan?


- O'tloqdagi o'rdaklar g'ozlardan 14 ta ko'pligi ma'lum.

- Masala bizdan nimani topishni talab qilayapti?

- O'tloqda nechta g'oz va nechta o'rdak borligini.

Masala yechimini topish uchun dastlab masala shartini ifodalovchi grafik shart (model)ni tuzamiz.

G'ozlar o'rdaklardan 3 marta kam bo'lgani uchun g'ozlar sonini ifodalovchi 1ta kesmani tanlaymiz. O'rdaklar sonini ifodalovchi kesma esa g'ozlar sonidan 3 marta ko'p bo'lgani uchun



bu kesma birinchi kesmadan 3 marta uzun bo'lishi kerak. O'rdaklar g'ozlardan 14 ta ko'p bo'lgani uchun o'rdaklar sonini ifodalovchi 3 ta ajratilgan kesmadan 2 tasini ifodalab, uni 14 ta deb belgilaymiz.

Bu grafik modelga qarab, mushohada yuritishni davom ettiramiz. Chizmadan ko'rayapmizki, 14 ta bu g'ozlar sonini ifodalovchi kesmalardan ikkitasini ifodalaydi. Demak 14 ni 2 ga bo'lib g'ozlar sonini topish mumkin. G'ozlar soni aniq bo'lgach o'rdaklar soni topiladi. Masala 3 ta ish bilan yechiladi (ayirish, bo'lish va ko'paytirish amallari bilan).

Yechish: 1)  $3 - 1 = 2$  (qism)

2)  $14 : 2 = 7$  (ta)

3)  $7 \cdot 3 = 21$  (ta)

Javob: 7 ta g'oz, 21 ta o'rdak.

Masala yechilish to'g'riligini tekshirish uchun 21 dan 7 ni ayirish kerak.

$21 - 7 = 14$  (ta)

"Ikki sonni ularning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra topish" masalalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- masalada ikki son yoki miqdorning yig'indisi (yoki ayirmasi) hamda ularning karrali nisbati beriladi, shu son yoki miqdorning o'zini topish talab qilinadi;

- masala matnini oydinlashtirish va yechimni topish maqsadida grafik shart (masala modeli) tuziladi.

Grafik shartni tuzishda eng kichik son yoki miqdor bir qism (hissa) sifatida tanlanib, shartli ravishda ma'lum uzunlikdagi kesma orqali belgilandi. Masala matnidan ikkinchi son yoki miqdor karrali nisbatga ko'ra, necha marta kattaligi inobatga olinib, ikkinchi kesma uzunligi belgilanadi.

- masalada ikki va undan ortiq noma'lum son yoki miqdor ishtirok etadi;

- masala yechimi teng qismlar sonini hisoblashdan boshlanadi. Agar masala matnida ikki son yoki miqdorning yig'indisi va karrali nisbati berilgan bo'lsa, qismlar soni qo'shiladi. Agar masala matnida ikki son yoki miqdorning ayirmasi va karrali nisbati berilgan bo'lsa, qismlar soni ayriladi;

- masala doimo yagona yechim usuliga ega bo'ladi;

- masala tarkibida boshqa tip masalalari uchrashi mumkin.

Quyida keltiriladigan masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularning mustaqil yechish uchun tavsiya etish mustaqil fikr yuritish ko'nikmasi shakllanishiga yordam qiladi.

1-masala. Ikki o'rtoq birgalikda 32ta yong'oq terishdi. Birinchisi ikkinchiga qaraganda 3 marta ko'p yong'oq tergan bo'lsa, har bir bola nechtdan yong'oq tergan?

2-masala. Zoir yechgan masalalar soni Zarif yechgan masalalar sonidan 4 marta ko'p. Zarif va Zoir birgalikda 40 ta masala yechgan bo'lsa, Zoir nechta masala yechgan?

3-masala. Ikki qutida 24 ta qalam bor. Birinchi qutidagi qalamlar ikkinchi qutidagidan 5 marta kam. Birinchi qutida nechta qalam bor?

Murakkab masalalarni ma'lum qism (tip)larga ajratib, har bir tipga taaluqli qismini alohida-alohida bajarib masala yechimini izlash, yaxshi samara beradi. Quyidagi masalani qaraymiz.

**Masala.** Omborga umumiy og'irligi 950 t bo'lgan uch yo'la temir keltirildi. Birinchi yo'ladagi temirning og'irligi ikkinchi yo'ladagi temirning og'irligidan 3 marta ko'p va uchinchi yo'ladagidan 5 marta kam edi. Uchinchi yo'lada olib kelingan temir ichida yassi temirlarning miqdori dumaloq temirlar miqdoridan 75 t kam va qirrali temir yassi temirdan 165 t kam edi. Uchinchi yo'lda necha tonna yassi temir keltirilgan?


Ushbu masala 2 qism (tip)dan iborat. Dastlab 3 tipga taalluqli qismini yechaylik. Bunda 2-yo'lda keltirilgan temirning og'irligini shartli ravishda birlik kesma deb belgilaymiz:

Yechish: Yechimni birin-ketin amallar bajarib izohlab yozamiz.

1)  $1 + 3 + 15 = 19$  (qism)

2)  $950 : 19 = 50$  (t)-2 yo'ladagi temirlar.

3)  $50 \cdot 15 = 750$  (t)-3 yo'ladagi temirlar.




Endi masalaning ikkinchi qismi, 2 tipga taalluqli qismini yechamiz.

Bu qism uchun ham alohida grafik shart beramiz.

Masala savoli necha tonna yassi temir keltirilgani so'ralgan ekan, dumaloq va qirrali temirlar miqdorini yassi temir miqdoriga tenglashtirib yechilishi maqsadga muvofiq.

4)  $750 + 165 - 75 = 840$  (t)



5)  $840:3 = 280$  (t) yassi temir.

Javob: 280 (tonna) yassi temir keltirilgan.

Ushbu tipga taalluqli quyidagi murakkab masalalarni keltirish maqsadga muvofiqdir, qaysiki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bunday ko'rishdagi masalalarni yecha olishlari shart.

4. Bola onasidan 4 marta yosh va buvisi nabirasidan 7 marta katta. Agar hammalarining yoshlarini qo'shganda 108 chiqsa, har qaysining yoshi nechada bo'ladi?

5. Xo'jalik umumiy uzunligi 1800 m va eni 8 m bo'lgan 4 bo'lak yerga archa daraxtlari o'tkazdi. Ikkinchi bo'lakning uzunligi birinchi bo'lakning uzunligidan 2 marta ortiq va uchinchi bo'lakning uzunligidan 2 marta kam edi. To'rtinchi bo'lakning uzunligi birinchi va ikkinchi bo'lakning birga olingandagi uzunligiga teng edi. Uchinchi bo'lakning yuzini aniqlang?

6. Maktabda 810 o'quvchi o'qiydi. Tushdan keyin o'qiydigan 130 o'quvchini ertalabki o'qishga ko'chirgandan keyin ertalab o'qiydigan o'quvchilar tushdan keyin o'qiydigan o'quvchilardan 2 marta ko'p bo'ladi. Dastlab ertalab necha o'quvchi, tushdan keyin necha o'quvchi bo'lgan?

### Adabiyotlar

1. Jumayev M. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi // Darslik. -T., 2018.

2. Rayxonov Sh., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish. -B., 2017.

3. F. Qosimov, M. Qosimova "TO DEVELOP STUDENTY SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS" Vol 10, Issue 1, January 2021:ACADEMICIA An International multidisciplinary Research Journal.

4. M.M. Қосимова А. Қосимов. "ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS" Vol 10, Issue 1, January 2021:ACADEMICIA An International multidisciplinary Research Journal.

5. M.Qosimova K. Karimova " PROBLEMS OF FINDING THE SUM OR DIFFERENCE OF TWO NUMBERS AND THEIR" Актуальные вопросы современной науки и образования.

6. M.Qosimova . A. Qosimov " On some typical problems to be solved in primary schools" An International Multidisciplinary Research Journal January 2021.

7. F.Qosimov, A.Qosimov, M.Qosimova " TO Develop students', skills of nature conservation and respect for human labor by teaching them to solve environmental problems" Asian Journal of multidisciplinary Research (AJMR), January 2021.